TILSHUNOSLIKKA DOIR TADQIQOTLARDA LINGVOPOETIKANING TUTGAN O‘RNI

Ismoilova Dilorom Rustamjon qizi
Renessans ta’lim universiteti dotsenti, f.f.f.d, (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilshunoslikka doir tadqiqotlarda lingvopoetikaning tutgan o‘rni, uning nazariy asoslari, shakllanish bosqichlari va badiiy matnni tahlil qilishdagi ahamiyati yoritilgan. Lingvopoetikaning stilistika, semiotika, pragmatika va kognitiv tilshunoslik bilan aloqalari tahlil qilinib, rus tilshunosligida ushbu yo‘nalishning rivojlanish bosqichlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, badiiy matnning estetik va semantik xususiyatlarini o‘rganishda lingvopoetik yondashuvning metodologik imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, badiiy matn, poetik funksiya, stilistika, semiotika, estetik ta’sir, poetik til, obrazlilik, semantik qatlam, tilshunoslik.*

KIRISH

Lingvopoetika tilshunoslik va adabiyotshunoslik oralig‘ida shakllangan fan sohasi sifatida “til va she’riyat, badiiyat“ ma’nolarini anglatadi.

U badiiy matnning tildagi ifoda vositalari orqali estetik ta’sir yaratish qonuniyatlarini o‘rganadi. Lingvopoetikaning asosiy predmeti so‘zning badiiy vazifasi, obrazlilik tizimi, poetik struktura va matnning semantik qatlamlaridir.

Tilshunoslikdagi lingvopoetik yondashuv badiiy matnni kommunikativ hodisa sifatida emas, balki estetik tizim sifatida o‘rganishga imkon beradi. Shu bois lingvopoetika “so‘z san’ati”ni lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishga intiladi. Bunda so‘zning nafaqat leksik-semantik, balki estetik, emotsional va assotsiativ qimmatlari ham muhim o‘rin tutadi.

Lingvopoetika adabiyotshunoslikdagi poetika va tilshunoslikdagi stilistika fanlari o‘rtasida joylashgan. Agar stilistika nutqning uslubiy xususiyatlarini o‘rganadigan bo‘lsa, lingvopoetika badiiy matnning estetik mohiyatini, til vositalarining badiiy ma’no yaratishdagi rolini tahlil qiladi. Shunday qilib, lingvopoetika estetik ta’sirning lingvistik mexanizmlarini ochib berishga qaratilgan.

Zamonaviy rus tilshunosligida lingvopoetika o‘zining mustaqil ilmiy maqomini XX asr davomida egalladi. Bu yo‘nalishning shakllanishida tilning poetik funksiyasi, badiiy matnning strukturasi va so‘zning obrazli mohiyatiga oid nazariyalar hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Lingvopoetika badiiy asarning shakli, tuzilishi, tili, uslubi va ifoda vositalarini o‘rganadi. Rus tilshunoslari poetik tilning badiiy imkoniyatlarini tahlil qilish, ya’ni so‘z san’ati va estetik ifoda vositalarini o‘rganish orqali fanga ulkan ilmiy xulosalar taqdim etgan.

Unga ko‘ra lingvopoetika bu badiiy matnning shakli va mazmuni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi fan sohasi bo‘lib, rus olimlari tomonidan olib borilgan lingvopoetik tadqiqotlar XIX asr oxirlaridan boshlab rivojlana boshlagan. Ushbu davrda

badiiy nutqning tuzilishi, so‘zning estetik imkoniyatlari va poetik tilning o‘ziga xos qonuniyatlarini o‘rganish ilmiy muammo sifatida shakllandi.

Rus lingvopoetik tafakkurining dastlabki shakllanishi A. Potebnya nomi bilan bog‘liqdir. U o‘zining “Mif va so‘z” hamda “So‘z va tafakkur” asarlarida so‘zning ichki shakli, obraz va ma’no o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilib, keyinchalik lingvopoetikaning nazariy asoslarini yaratdi. A.Potebnya fikricha, badiiy matnning poetik mohiyati til birliklarining semantik qatlamlarida mujassamdir.

1950–1970-yillar rus tilshunosligida lingvopoetik tahlilga semiotik yondashuvlar kirib keldi. R.Yakobsonning “Poetik funksiya haqida” nomli ma’ruzasi lingvopoetikaning keyingi taraqqiyotida burilish nuqtasi vazifasini bajardi. U poetik funksiyani tilning asosiy funksiyalaridan biri sifatida ajratib ko‘rsatdi va badiiy matnni kommunikativ tizim sifatida tahlil qilish zarurligini ta’kidladi. Darhaqiqat, badiiy asardagi ekspressivlik funksiyasi yetakchiligi ilm ahliga chuqur singdirilayotgan bir paytda, baddiy asarning muloqot vositasi sifatidagi tadqiqi fanga yangi ilmiy natijalarga sabab bo‘ldi.

Hozirgi davr rus tilshunosligida lingvopoetika fanlararo tarmoq sifatida yanada kengaydi. Zamonaviy rus tilshunosligida lingvopoetika kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlili, stilistika va pragmatika bilan uzviy aloqada rivojlanmoqda. Hozirgi tadqiqotlarda badiiy matnning estetik va kommunikativ xususiyatlari, metaforik modellar, konseptual tahlil, obrazli tafakkur va individual uslub masalalari chuqur o‘rganilmoqda.

Rus tilshunosligida lingvopoetikaning shakllanishi ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, lingvopoetika bugungi kunda badiiy matnni til, tafakkur va madaniyat o‘zaro munosabatida tahlil etuvchi mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida qaraladi.

Ushbu sohaning keyingi rivoji tilning estetik imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglash, adabiy matnni raqamli texnologiyalar yordamida tahlil qilish va poetik tafakkurning universal qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar bilan belgilanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, dastavval adabiyot nazariyasining bir qismi sifatida shakllangan lingvopoetika, XIX asrda o‘z ilmiy asoslariga ega bo‘ldi. Natijada lingvopoetik tahlil mustaqil bir tadqiqot yo‘nalishiga aylandi. Hozirda esa mazkur filologik yondashuv til, madaniyat, ong va estetik ifodani birgalikda o‘rganuvchi umumiy soha sifatida rivojlanyapti.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, rus tilshunoslari maktabi lingvopoetika uchun o‘ziga xos metodologik yondashuv yaratdi. Bunda badiiy asarni yaxlit bir til tizimi sifatida o‘rganish va badiiy matnning ekspressiv ta’sirni lingvistik vositalar orqali tahlil qilish kerakligi asos qilib olindi. Shuningdek, matnning strukturaviy tuzilmasini poetik hodisa sifatida o‘rganish yetakchi darajaga olib chiqildi.

Bu yondashuv keyinchalik strukturaviy va semiotik tahlilning poydevorini tashkil etdi.

Lingvopoetika ko‘pincha stilistika bilan yondosh soha sifatida qaraladi, biroq ular orasida muhim metodologik farq mavjud. Stilistika nutq uslublarini, leksik va grammatik vositalarning uslubiy imkoniyatlarini o‘rganadi. Lingvopoetika esa badiiy matndagi til vositalarining estetik qiymatini tahlil qiladi.

Masalan, stilistika “metafora”, “epitet”, “tashbeh” kabi vositalarning nutqdagi o‘rnini ko‘rsatsa, lingvopoetika ularning semantik, assotsiativ, madaniy va emotsional ta’sirini ochib beradi. Qolaversa, stilistika barcha nutq uslublarini tahlil qiladi. Vaholanki, lingvopoetika esa faqat badiiy uslub bilan chegaralanadi.

Lingvopoetikaning asosiy metodologik tamoyillari sifatida lingvistik birliklarning badiiy matnda o‘zaro obrazlar tizimini hosil qilishi, badiiy matnda shunchaki estetik zavq emas, balki estetik ma’lumot taqdim etilishi va lingvopoetikaning stilistika, semiotika, pragmatika, kognitiv lingvistika va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog‘liq bo‘lishida aks etadi.

Lingvopoetika fanining shakllanishi tilshunoslik tarixida ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u turli millat olimlarining tadqiqotlari asosida nazariy asos topgan. Yillar davomida badiiy matnni lingvistik tahlil qilish g‘oyasi shakllandi, tilning poetik funksiyasi aniqlashtirildi va badiiy nutqni estetik tizim sifatida o‘rganish yo‘nalishi paydo bo‘ldi.

Shunday qilib, lingvopoetika nafaqat stilistik, balki semiotik va falsafiy asosga ega bo‘lgan murakkab fan sifatida shakllandi. Bu esa uning keyingi bosqichlarda — strukturaviy, semiotik va kognitiv davrlarda yanada chuqurlashishiga zamin yaratdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, lingvopoetika adabiyotshunoslik va tilshunoslikning tutashgan sohasidir. U badiiy matnning ichki tuzilishi, obrazlilik tizimi, so‘zning estetik vazifasi, matnning semantik qatlamlari va poetik kommunikatsiya jarayonini lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Ushbu yo‘nalishning shakllanishi va rivojlanishi milliy tilshunosligimizda ham o‘z nazariy asoslariga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Потебня А.А. Миф и слово. – М.: Лабиринт, 2000. – 624 с.
2. Потебня А.А. Мысль и язык. – Киев: СИНТО, 1993. – 192 с.
3. Якобсон Р.О. Лингвистика и поэтика // Структурализм: «за» и «против»: сб. статей. – М.: Прогресс, 1975. – С. 193–230.
4. Yo‘ldoshev B. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi – Toshkent: Fan, 2009.